



## BADIIY MATNLARDA NUTQIY AKT NAZARIYASIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

**Ashirov Odilbek Maxsudovich**

QQDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8357799>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada badiiy matnlardagi nutqiy akt nazariyasiga doir qarashlar aks etgan. Badiiy matn tahlilida nutqiy aktning qo'llanilishi va matnlardagi o'rni haqida taklif va tavsiyalar berib o'tilgan. Qolaversa so'zlovchining badiiy matndagi nutqiy akti misollar yordamida izohlangan.

**Kalit so'zlar:** badiiy matn, nutqiy akt, nutqiy ta'sir, matn tahlili, lison, lokutsiya, lakutiv akt.

### ABSTRACT

This article reflects views on the theory of speech act in artistic texts. In the analysis of the literary text, suggestions and recommendations were given about the use of the speech act and its place in the texts. In addition, the speech act of the speaker in the artistic text is explained with the help of examples.

**Keywords:** artistic text, speech act, speech effect, text analysis, language, locution, eloquent act.

Nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojatidir. Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topishini barcha pragmalingsvistlar e'tirof etishgan. Ularning kopchiligi nutqiy aktga uch bosqichli fapliyat sifatida qarash tarafdorlaridir. Bu bosqichlarda uch xil harakat uch xil harakat bajariladi. Ular lokutiv, illokutiv va perllokutiv harakatlar sanaladi.

Bu qarshlar oldin V. Humbolt, Sh. Balli, K. Byuller, M. Baxtin kabi xorijlik olimlar tomonidan asoslab berilgan.

Lekin bu ta'limotni chuqur o'rgangan ingiliz matntiqshunosi J. Ostin va amerikalik psixolog J. Syorllar hisoblanadi. Ular oksford va Kembrij universiteti olimlari bo'lib, lisoniy faoliyatning ko'p tomonlari inson faoliyati bilan bog'liq ekanligini asoslab berdilar.[1]

J. Ostin 1995-yili Garvard universitetida tashkil etilgan an'anaviy "U'ilyam Jeyms o'qishlari" dagi ma'ruzalarida ilk bor ushbu masalani o'rtaga tashlaydi. Keyinchalik, uning ma'ruzalari 1962-yili "So'zlar bilan qanday muomalada bo'lmoq kerak?" sarlovha bilan matbuotda nashr qilinadi.[2]

Biz muloqot jarayonida jarayonida mazmundor lisoniy kalimani yaratamiz va uni talaffuz qilish yo'li bilan nutqiy faoliyatimizni bajaramiz. Mana shu



ITALY



ITALY

faoliyat ijrosi **lokutsiya** yoki **lokutiv akt** hisoblanadi. Maboda biror bir sabab bilan (tilni bilmaslik, gung bo'lish) mazmundor gap tuzilmasa va u talaffuz etilmasa, lokutiv harakat yuzaga kelmaydi. Masalan, "Issiq choy damladim" gapi faqatgina yozuvda qolsa, bu yerda lokutsiya (so'zlash akti, harakati) yo'q. Ammo mazmundor gaplar bekordan bekorga tuzilavermaydi, ularni tuzishdan va talaffuz qilishdan ma'lum bir maqsad ko'zlanadi. Bu esa til sohibi ongida doimo mavjud bo'ladi. ushbu maqsadning voqelanishi esa illokutiv (so'zlovchi niyati) akt natijasidir.

Illokutsiya shaxslararo (muloqat ishtirokchilari o'rtasidagi) munosabatlarning ifodalanishidir. Masalan, yuqorida keltirilgan "issiq choy damladim" talaffuz etish orqali so'zlovchi tinglovchini choyga taklif qilish bilan birga suhbatdoshning qanday choy ichishni (issiq yoki sovuq) bilish kabi kommunikativ istaklarini ifodalash imkoni bor. Demak, aynan shu kommunikativ maqsad qanday vaziyatda, sharoitda voqelanishi esa nutqiy tuzilmaning voqelanishiga nisbatan illokutiv kuchi hisoblanadi.

Har qanday nutqiy muloqatdan ko'zlangan maqsad bo'ladi. O'sha maqsadga erishish uchun so'zlovchining nutqi tinglovchiga ta'sir o'tkazmog'i darkor. Bunday nutqiy faoliyatning ta'sir o'tkazish bosqichi **perlokutiv akt** (nutqiy ta'sir) perlokutsiya hisoblanadi.

Bu akt haqida O.G.Pocheptsov quyidagicha fikrlar bildiradi: "1) Illokutiv harakat ijrochisi (agenti) so'zlovchi yoki yozuvchi bo'ladi; 2) Illokutiv akt nutq yaratilish faoliyatidan farq qiladi; 3) Illokutiv akt nutq yaratilish faoliyati jarayonida yuzaga keladi; 4) Bu akt nutqiy faoliyat vositasida bajariladi" – deydi.[3]

Lekin illokutsiyaning nutqiy faoliyatdan farqini ko'rsatishga qanchalik harakat qilmasin, u hech qachon kommunikativ faoliyatsiz, insonlar aro munosabatni yaratish muhtisiz yuzaga kelmaydi. Illokutiv akt bevosita muloqat tuzilishining ishtirokchisi, kommunikativ maqsad va mazmunli ko'chishni ta'minlovchi nutqiy faoliyat bo'lagidir.

Illokutiv akt hosil bo'lishi uchun ma'lum bir nutqiy tuzilmaning aniq ko'rinishidagi "Illokutiv kuchi" namoyon bo'lmog'i darkor. Demak, yuqoridagi "Issiq choy damlandi" gapi orqali choyga taklif qilish bilan birga uni iching degan ma'no ham anglashiladi.[4]

So'zlovchining obyektiv olamdagi ro'y berayotgan voqelikni idrok qilishi va uni verbal hamda noverbal ifodalash darajasi ma'lum ma'noda so'zlash akti (lokutsiya) tushunchasini anglatadi. So'zlovchi nutqiga xos "men"likning bayon qilish etaplarini lokutsiya qamrab oladi. Ko'rinadiki, lokutsiya pragmtik



ITALY



ITALY

tushunchalar qatoriga kiritilib, nutq sub'ekitining "men"ligi hamda makon va zamondagi birligini ifoda etadi.

So'zlash (lokutiv) akti o'zining qator xususiyatlari bilan boshqa aktlardan ajralib turadi. Masalan, X. Do'stmuhammadning "Nigoh" qissasida shunday lokutiv (so'zlash) akti beriladi: Ja-a, qalovlanib qolibsizmi, deyman, o'g'lim? Bek Jannatarol sohibi bilan ota-onadek qadir donligiga qaramay unga dabdurustdan javob topolmadi. [5]

Bek o'z tashvaishi bilan ovora bo'lib, amakining ikkinchi marta luqma tashlaganidan tasavvuri qancha keng bo'lsa, u nutqiy vaziyat darajasini shu qadar tez fahmlaydi. Shuning uchun ifoda semantik qurilishidagi axborot ko'rinishlarini oshkora yoki yashirin bayon qilish, oshkora ifodalab bo'lmaydigan axborot ko'rinishini tagma'no shaklida berish so'zlovchining ikki maqsadi bilan bog'liqdir. Umumyashirin mazmun verbal shaklning tagma'no aylantiriladi yoki noverbal ifoda va uning gavda harakatlari bilan bog'liq ko'rinishi orqali yuzaga chiqariladi.

So'zlovchi nutq predmeti haqidagi axborotni til belgilari yig'indisi yordamida yuzaga chiqazadi. Bu ifoda semantik tuzilishidagi oddiy xabar mazmunini tashkil etadi. Oshkora shakl, asosan, diktumidan iborat bo'ladi. Diktum mohiyati propozitsiya mazmuni bilan yana ham o'zining aniq ma'nosiga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda Nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga murojaatidir. Nutqiy akt mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan iborat barcha progmalingvistik ta'limotlarda e'tirof etiladi. Harakatlarning nutq yordamida ifodalanishi natijasida nutiqiy akt yuzaga keladi. So'zlash jarayonida qancha fikr bo'lsa, shuncha harakat sodir etiladi. Biz gapirish orqali ma'lum harakatlarni nutqimizda bayon qilamiz. Nimadir aytish bilan nimanidir bajaramiz, bunga tovushlar, so'z, qurilma, ma'lum mazmun va referentsiyaga ega bo'lgan bayoniy ma'nolar kiritiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. Toshkent "Akademnashr" 2013.
2. Saporov Sh. Pragmalingvistika. Samarqand DUTU. Toshkent 2008.
3. O.G.Pocheptsov 1986. 24-bet.
4. Do'stmuhammad X. "Qissalar" "Sharq". – T. 2011.
5. Do'stmuhammad X. "Beozor qushning qarg'ishi" hikoyalar. "Sharq" 2006

